



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
—
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi.....	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili	127

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

Javohir ZOKIROV

Termiz davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim

kafedrasи o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLIKLARIDA MASHQLARNING XUSUSIYATLARI

Maqolada vosita keng ma'noda inson o'zi bilan mehnat predmeti o'rtasiga qo'yadigan moddiy va moddiylashgan narsalardir. Duradgor o'zi bilan mehnat predmeti-xontaxta, stul shakliga keltiriladigan taxtalar o'rtasiga arra, yelim kabi moddiy narsalarini, taxtani arralash tajribasi, o'zida buyumlar yasash bo'yicha hosil qilingan moddiylashgan narsalar-bilimlarni qo'yib, mehnat predmetini iste'mol tovar shakliga keltirganidek, o'qituvchi o'zi bilan o'quv materiali o'rtasiga moddiy va moddiylashgan narsalarni qo'yib ta'lidan ko'zlangan maqsadni amalga oshiradi, ma'lum natijaga erishadi. O'qituvchi uchun ta'lim vositalari nihoyatda ko'p: o'quv topshiriqlari, muammolari, lingvistik mashq uchun tuzilgan topshiriqlar, testlar ana shunday vositalar sirasiga kiradi.

Kalit so'zlar: darslik, mashq, topshiriq, biluv faoliyati, o'quvchi, o'quv materiali, til.

В статье под средство понимаются материальные и овеществленные вещи, которые человек ставит между собой и предметом труда. Плотник ставит между собой и предметом труда материальные предметы, такие как пила, клей, опыт распиления досок, и материализованные предметы-знания, которые он создал при изготовлении предметов, - доски, из которых сделана форма стула, и превращает предмет труда в продукт потребления, по мере его формирования учитель ставит материальные и овеществленные вещи между собой и учебным материалом, реализует намеченную цель образования, достигает определенного результата. Учебных средств для учителя очень много: учебные задания, задачи, задания к языковым упражнениям, тесты относятся к числу таких средств.

Ключевые слова: учебник, упражнение, задание, познавательная деятельность, ученик, учебный материал, язык.

In the article, the engine in a broad sense is the material and materialized things that a person puts between himself and the subject of labor. Just as a carpenter places material objects, such as saws, glue, experience in sawing boards, materialized objects obtained as a result of making objects, in the middle of the boards that he brings with him in the form of a table top, a chair, and materialized objects obtained as a result of making objects-knowledge, the teacher achieves the goal by placing materialized and materialized objects between each other in the middle of the educational material, a certain result is achieved. There are an incredible number of teaching tools for a teacher: such tools include learning tasks, tasks, structured tasks for a language exercise, tests.

Keywords: textbook, exercise, task, cognitive activity, student, educational material, language.

Kirish. Bola ijtimoiy aloqalashuvning turli sohalarida ishtirok etib, ona tilini o'zlashtiradi: o'yinlar vositasida tilni o'zlashtirish, kuzatish va tajribalar yo'li bilan tilni o'rganish, katta kishilarning ostensiv tushuntirishidan yangi-yangi so'zlarning ma'nolarini, turli sintaktik qurilmalarni egallah, ta'lif sharoitida til va nutqni o'zlashtirish. Ijtimoiy aloqalashuvning har bir shakliga faoliyatning ma'lum turi to'g'ri keladi: o'yin o'yin faoliyatini, kuzatish va tajribalar til dalillari bilan ishlashni, ostensiv tushuntirish o'zgalar nutqini tinglashni, darslik va o'qituvchi nutqi ona tilining lingvistik hamda nutqiy jihatlarini egallah faoliyatini taqozo qiladi.

Tilni o'zlashtirishning turli shakllari va ularga oid faoliyat turlari o'zarо aloqador bo'lsa-da, ular bir-biriga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq malakalari-nutq tovushlarini fahmlash, ularni ijro eta bilish, bola nutqida turli-tuman so'zlarning mavjudligi, so'z ma'nolarini ajrata olish tajribasining asta-sekin takomillasha borishi, gap, nutq tuzish layoqati, fikrni o'zgalarga yetkazish va sh.k. maktab ona tili predmetini o'zlashtirish uchun manba hisoblanadi.

Metodlar. Maktab ona tili ta'limi bolalarning maktabgacha hosil qilingan nutq tayyorgarligi ustiga quriladi. Bola maktabga kelgunga qadar

56 ayrim nutq tovushlarini noto‘g‘ri eshitib, noto‘g‘ri o‘rgangan bo‘lishi mumkin. O‘quvchining nutqida sheva elementlari ham ancha topiladi. Zero, har bir maktab, har bir o‘quvchi sheva sharoitida yashaydi. Bular ona tili ta’limining o‘qitilishiga salbiy ta’sir qiladi. Ularни bartaraf etish orqali ona tili ta’limining samaradorligi oshirila boriladi.

Ona tili ta’limi sharoitida bolalarning o‘quv biluv faoliyatini kuzatish shu xulosaga olib keldiki, ma’lum mavzuga oid bilimlar o‘rganilgach, shu bilimlarga ryoja qilib intellektual va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalar xatolarga yo‘l qo‘yadi. Bu o‘quvchilarning bilimlarni yomon o‘rganganining natijasi emas, balki o‘rganilgan bilim bilan uni nutq faoliyatida qo‘llash o‘rtasida mustahkam aloqadorlikning hosil qilinmaganligidir. Bilim va uning nutq faoliyatida qo‘llanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik mashq qilish orqali o‘rnataladi. Mashq, savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yo‘llari bilan bolalarning nutq faoliyatidagi nuqsonlari kamaytiriladi.

An‘anaviy metodika qoidalariga ko‘ra o‘quvchilar ona tilidan ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda qator bosqichlarga ryoja qilib, faoliyatni amalga oshiradi: 1) mavzu doirasida ta’rif, qoida, aniqliklarni o‘rganish-bu bosqichda o‘rganilgan bilimlarni isbotlash, sharplash uchun dalillar tanqisligi mavjud bo‘lib, o‘quvchilar o‘zlashtirgan mavzuga doir dalillarni keltirishga qiynaladi, oldin o‘rganilgan mavzularga oid dalillarni yangi mavzuga doir dalillardan farqlay olmaydi; 2) bilimlarga oid dalillarni to‘plash va ularni tahlil qilish davom ettiriladi, o‘rganilgan bilimlarga ryoja qilib mashqlarni bajaradi. Endi bolalar ta’rif, qoidalarni sharplashda yetarli dalillarni egallab olishgan bo‘lsa-da, bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq qilishda qiydaladi. O‘z-o‘zidan mavzuni o‘zlashtirishni davom ettirishga ehtiyoj tug‘iladi. Shu ehtiyojga binoan yana mashq qilishga vaqt ajratiladi; 3) o‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq qilish malakalarini rivojlantirish. Bu bosqichda o‘rganilgan bilimlarni nutqda ishlatish, matn yaratish ustida ish qilinadi; 4) o‘rganilgan ta’rif, qoida, aniqliklarni ona tili predmetiga oid keyingi mavzularni o‘rganish jarayonida davom ettirish bosqichi. Sanab o‘tilgan bosqichlarning barchasida bolaning o‘quv-biluv faoliyati tildan, tilning turli nuqtai nazarlariga mansub bilimlardan nutqqa qarab borish tamoyiliga ryoja qilib, ona tili ta’limi amalgalashadi.

Bizningcha, ona tili ta’limining samaradorligini oshirish uchun ta’limni nutqdan tilga qarab borish qolipida tashkil etish maqbul yo‘l sanaladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini nutqdan tilga qarab borish yo‘li bilan tashkil etish o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongliligi, mustaqilligi, faolligini ta’minlaydi. Nutqdan tilga

qarab borish tamoyili dastlab O.Roziqov izlanishlarida asoslangan edi [2, 34].

Nutqdan tilga qarab borish tamoyilini qanday tushunmoq kerak? Bola o‘zini va o‘zgalarni, narsa va hodisalarini so‘z vositasida taniydi, bilib oladi. Ular to‘g‘risidagi kechinmalarni, o‘z fikrini nutq vositasida yuzaga chiqaradi. Til va nutqning o‘zaro munosabati bolalar uchun ham, katta kishilar uchun ham umumiylig va xususiylik, imkoniyat va reallik o‘rtasidagi munosabatlar shaklida amal qiladi.

Til umumiylidir. Uning elementlari ongda to‘planadi, asraladi va yashaydi. Nutq xususiylidir. U odamlarning munosabat, muloqot, bahslarida yuzaga chiqadi. Til va nutq hodisalarini o‘rtasidagi bog‘lanishlarga ryoja qilib, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini “nutqdan tilga” qarab borish shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Til ta’limida tayyor matnlar ustida ishslash va matnni shakllantirish (matn tuzish) ona tili o‘qitishning yetakchi usuli bo‘lmog‘i shart. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o‘zining “Lisonut tayr” dostonida ta’kidlab aytganidek, “Istabon tashxisi xotiri ustod, Nazm o‘qiturkim ravon bo‘lsun savod” fikriga amal qilish zarur. Xotiraning tashxisi, ya‘ni jonlanishi, savodning ravonligi-yu, barkamolligi, til chechanligi nazmiy va nasriy matnlar ustida ishslashga ko‘p jihatdan bog‘liq. Turli matnlarni tahlil qilish, berilgan til dalillarini qatnashtirib, matn tuzish yo‘llari bilan yangi-yangi so‘zlar til qaymog‘i sanalmish obrazli iboralar, turli sintaktik qurilmalar bilan ongni, tilni boyitish mumkin.

Nutqdan tilga qarab borish yo‘sinida ishslash o‘quvchilarni:

-o‘rganilayotgan til hodisasiga oid dalillarni tayyor matnlardan izlab topish, ularga sharh tayyorlash, xulosalar chiqarishga;

-berilgan dalillar asosida matn tayyorlash, tayyorlangan matnni o‘rganilayotgan til hodisasi jihatidan tahlil qilish, o‘zlar mustaqil chiqargan xulosani darslikdagi ta’rif, qoida, aniqliklarga taqqoslash;

-aytilgan holatlarga mos situativ nutq (qariyalarning yoshlarga murojaati, sotuvchi va xaridor dialogi, tabiat hodisalari, turli narsa-voqealarni tavsiflash) tayyorlash, tayyorlangan nutq-matnni ikki yoki undan ortiq til hodisalariga ko‘ra tahlil qilishga;

-bir-biridan ajratilgan hajmi kichik matnlarni mazmuni bo‘yicha birlashtirib, nisbatan yirikroq, yaxlit matn holatiga keltirishga yetaklaydi. Bunday ish usullari ona tili ta’limining samaradorligini oshirib, bolalarni ijodiy ishslashga, o‘z faoliyati natijasidan faxrlanishga, ona tili ta’limining birikishidan rag‘batlanishga sabab bo‘ladi. Eng asosiysi bunday usullar bolalarda turli hissiyotlarni-

qiziqish, rag‘batlanish, emotsiya va motivlarni ishga tushiradi. +iziqish, rag‘batlanish, emotsiya va motivlarsiz bolaning o‘rganishi, bilishi mumkin emas. Ular tafakkur hodisalarining tahlil va qayta birlashtirish, taqqoslash va farqlarini ajratish, abstraktsiyalash va konkretlashtirish, umumiylikda xususiylikni ko‘rish, xususiylikda umumiylikni ajratish kabi aqliy faoliyat usullarining ta’limda faol ishtirokini ta’minlaydi. Binobarin, ona tili ta’limining borishida o‘quvchilarga lingvistik usullar, ularning tarkibi va ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish foydadan xoli bo‘lmaydi. Eng asosiysi bola lingvistik usullarni o‘rgangan sari, ijod qilish sirlaridan ham voqif bo‘la boshlaydi. Ta’lim sharoitida ona tilini o‘rganish jarayonida so‘zni bo‘g‘in va tovushlarga ajratish, so‘zning o‘zagi va yasovchi qo‘srimchalarini ajratish, turli sintaktik birlıklarning o‘xshash va farqli jihatlarini qayd etish kabi lingvistik usullar ham ishtirok etadi. Bola u yoki bu topshiriqni bajarishda lingvistik usullarni qancha ongli his qilsa va ishlatsa, qo‘ylgan vazifani shuncha samarali hal qiladi.

Ta’lim sharoitida bolalarning ona tilini o‘zlashtirishiga oid o‘quv-biluv faoliyati o‘ta murakkab, yaxlit tizim bo‘lib, tarkiban, motiv, maqsad, vosita, natijadan iborat. Ammo yaqin-yaqingacha bolalarning o‘quv-biluv faoliyati alohida o‘rganilmagan edi. “Biz,-deb yozadi muallif,-o‘quv faoliyati va biluv faoliyatini yaxlitning ikki tomoni sifatida qaraymiz. Ular bir nuqtadan chiqqan, bir-birini to‘ldiradigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo qiladigan disparat-bir-birini inkor qilmaydigan hodisalaridir” [3].

O‘quv faoliyati ham, biluv faoliyati ham bitta ijtimoiy hodisaga-ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga daxldor. B.R.Adizovning ilmiy-pedagogik izlanishida o‘quv faoliyati va biluv faoliyati o‘rtasidagi farqlar juda keng tahlil qilingan: agar o‘quv faoliyati bilim, ko‘nikma, malakaga yo‘nalgan bo‘lsa, biluv faoliyati bilim, ko‘nikma, malaka bilan birga ijodiy faoliyat tajribasi munosabatlarini shakllantirishga yo‘nalgan. Binobarin, dastlabki farqni o‘rganiladigan hodisalar kengligi, biluv faoliyatining boyligida ko‘ramiz; o‘quv faoliyatida o‘zlashtirish reproduktiv xarakterda bo‘ladi. Bola o‘qituvchi aytgan topshiriqlarni ijro etadi, o‘qituvchi va o‘rtoqlari faoliyatiga ergashadi. Biluv faoliyatida o‘zlashtirish mahsuldor amal qiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan hamkorlikda o‘z oldiga topshiriqlar qo‘yadi, muammo, topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Demak, bu faoliyat turlarining yana bir farqi faoliyatning amal qilish xarakteri bilan izohlanadi; o‘quv faoliyatida bola ta’limning obyekti, biluv faoliyatida esa ta’limning sub’ekti rolida ishtirok etadi. Ta’limning obyekti yoki subyekti funksiyalarida ishtirok etish bu ikki xil

faoliyatning navbatdagi farqlaridir; o‘quv faoliyati va biluv faoliyati o‘rtasidagi yana bir farqni bolalarning mustaqilligi darajasida ko‘ramiz. Biluv faoliyatida bolalar mustaqilligi yanada yuqori darajada bo‘ladi [3].

Keltirilgan tahlildan ko‘rinadiki, bolalarning o‘quv-biluv faoliyati murakkab hodisa bo‘lib, o‘ziga xos tarkibiy qismlarga ega: motiv, maqsad, vosita, natija. Motivlar o‘quv-biluv faoliyatini harakatga tushiradi. Maqsad-bu oldindan anglangan natija. Natija o‘quv-biluv faoliyati ixtiyoriga o‘tgach, vositaga aylanadi. Bola o‘z ixtiyoridagi bilim, faoliyat usullari, aqliy mehnat usullari u yoki bu muammoni, o‘quv topshirig‘ini bajarishda vosita vazifasini bajaradi.

Natijalar. Bolalar faoliyatining ikki tomonini farqlaymiz: o‘quv faoliyati; biluv faoliyati. O‘quvchi faoliyatining har ikkala tomoni uchun umumiylik o‘rganishdir. Boshqacha aytganda, bola o‘quv faoliyati vositasida ham, biluv faoliyati vositasida ham ijtimoiy tajribani o‘rganadi. Shu bilan birga, ularning farqli tomonlari ham mavjud. Bolada oldin o‘quv faoliyati shakllanadi. Shu tufayli o‘quv faoliyatini genetik jihatdan birlamchi deb qaraymiz. Biluv faoliyati genetik jihatdan ikkilamchi bo‘lib, u bolalar tafakkuriga mo‘ljallab tashkil etiladi. Bola biluv faoliyati vositasida yangi bilimlarni, faoliyat usullariga oid axborotlarni egallaydi. Faoliyatning biluv tomoni yangi axborot, yangicha faoliyat usullarini egallah bilan, o‘quv tomoni bilim, faoliyat usullarini tanish sharoitlarda ishlatish bilan izohlanadi. O‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning asosiy vositasi o‘quv topshiriqlaridir. O‘quv topshirig‘i nima?

O‘quv topshirig‘i ko‘p funktsiyali metodik hodisa bo‘lib, uning mohiyati ona tilini o‘zlashtirishdagi vazifalari o‘quv materiali bilan yonma-yon o‘rganilishi zarur. Misol tariqasida “Darak gap” mavzusini olaylik. O‘quv materiali tarkiban quyidagi bilimlardan iborat: bilim-xabar anglatish, darak gapning oxirida ovozning pasayishi, gapning oxiriga nuqta (.) qo‘yish; malaka-darak gapni gapning boshqa turlari, masalan, so‘roq gapdan farqlash, darak gapni o‘ziga oid ohang bilan ijro etish-o‘qish, gapning yakunlanganligini nuqta qo‘yish bilan ko‘rsatish; ijodiy faoliyat tajribasi-darak gapni matndagi gaplar orasidan ajratib olish, aytilgan mavzuda matn tuzib, unda darak gaplarni ham ishlatish, berilgan tayanch so‘zlarni qatnashtirib, nuqul darak gaplardan iborat nutq tuzish; munosabat-tuzilgan darak gap va matnga o‘z munosabatini bildirish.

Darak gap mavzusida o‘quv topshiriqlari tuzilganda, o‘quv materiali shakli o‘zgartirilib, bolalar bajara oladigan topshiriq shakliga olib kelinadi: “Bahor” mavzusida darak gaplarni

58 qatnashtirib, matn tuzing; sabr-toqat, chidam, intizom, qunt bilan o'qish, maqsad, maqsadga intilish so'zlarini qatnashtirib, "A'lochi o'quvchisi" mavzusida hikoya tuzing; matndan faqat darak gaplarni ajratib oling va ularning o'qilishini tushuntiring; o'rtog'ingiz yozgan hikoyani tahsil qilib, uning darak gap tuzishga oid malakasini baholang; o'zingiz va o'rtog'ingiz tuzgan insholarni taqqoslab, har birining yutuqlarini aytib berishga tayyorlaning va sh.k. Har gal o'quv topshirig'i tuzilganda, o'qituvchi ta'lim ehtiyojlarini hisobga olib, o'quv materialini turlituman shakllarga keltiradi. Shu yo'l bilan ona tili ta'limi mazmuni bolalarning bilish imkoniyatlariga moslashtiriladi. O'quv topshirig'i-bu ona tilidan o'quv materialini o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchi faoliyati) ehtiyojiga ko'ra ta'lim mazmunining ma'lum shart asosida o'zgartirilgan shakli [4, 22].

O'quv materialining o'quv topshirig'i shaklida o'zgartirilishi qancha rang-barang bo'lsa, bolalar ona tili mavzularini shuncha puxta, atroficha o'zlashtirishadi. Shu bilan birga, o'quv topshirig'i bilimlarni tanish va yangi sharoitlarga ko'chirish, ularni nutq amaliyatiga tatbiq etishning eng qulay vositasi sanaladi. Ona tilidan o'quv topshiriqlarini bajarish yo'li bilan bolalarda nutq faoliyati takomillashadi, ona tili bo'yicha hosil qilingan malakalar takomillashib, malakaga aylanadi. Binobarin, o'quv topshirig'i bolalarda ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan faoliyatni tarbiyalashning bosh omili hisoblanadi.

O'quv-biluv faoliyatiga ko'ra biluv topshiriqlari. Hozirgi didaktik va metodik izlanishlarda ta'lim mazmuni tarkibida bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlar tizimini ajratish moyilligi kuchayib, umumiylar qarash maqomini olmoqda.

Ta'lim mazmunini o'rganish jarayonida bajaradigan ishiga ko'ra biluv topshiriqlarining to'rt turini farqlaymiz.

1. Yangi bilimlarni qayd etishga oid biluv topshiriqlari. Bu tipdag'i topshiriqlarni bajara turib, bolalar o'rganilayotgan hodisaning yangi nuqtai nazarini mustaqil belgilab, undan yangi xulosa chiqarishadi. Masalan, 2-sinf o'quvchilariga quyidagicha topshiriq berish mumkin.

Ikki ustunda so'zlar (otlar) berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab, farqlarni aytib berishga tayyorlaning.

1-ustun 2-ustun

bola bolalar

daraxt daraxtlar

gul gullar

Ikkinchilik ustundagi otlar nimasi bilan birinchi ustundagi otlardan farq qiladi?

2. Ko'nikma va malakalarini yanada takomillashtirishga oid biluv topshiriqlari. Ular vositasida hosil qilingan malakalar yanada takomillashtiriladi, mavzuga oid yangi dalillar to'planadi.

Tasavvur qiling: bolalar atoqli otlarni o'rgangan bo'lsa-da, qishloq nomlarining yozilishini hali o'rganishmagan. Shunday holatda bolalar diqqatini matnga tortsak. Matnda qishloq nomlari ham bor.

Topshiriq: matnni o'qib, qishloq nomini bildirgan so'zlarni yozing. O'zingiz yozgan so'zlardan qanday xulosa chiqarish mumkin.

3. Ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirishga oid biluv topshirig'i. Bu xildagi topshiriq vositasida bolalar yangicha faoliyat tajribasini egallab olishadi.

4. Tilga munosabatni shakllantirishga oid biluv topshiriqlari. Bolalar o'zları, o'rtqlari tuzgan matnlarni tanqidiy baholab tekshiradi. Bunday topshiriqlar bolalarda tilga munosabatni tarbiyalaydi.

Ta'lim mazmunini mustaqil o'rganish jarayonida bajaradigan ishini hisobga olib, biluv topshiriqlarining 4 turi ajratiladi.

1. Ona tilidan o'rganilayotgan mavzuga oid nutq tovushi, so'z, so'z birikmasi, gap va shu kabilarni matndan ajratish, ajratilgan ob'ektni tahsil qilish, uni oldin o'rganilgan ob'ektlar bilan taqqoslash, taqqoslash yo'li bilan mustaqil xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosani darslikda berilgan ta'rif, qoida, aniqlik bilan chog'ishtirish. Dastlabki tur biluv topshiriqlari amaliy faoliyatdan boshlanib, xulosa chiqarish bilan yakunlanadi.

2. O'rganilgan bilimni yangi o'quv sharoitiga tatbiq qilishga oid biluv topshirig'i. Biluv topshiriqlarining ikkinchi turini ta'limga tatbiq etish yo'llarini oydinlashtirish uchun birinchi va ikkinchi tur biluv topshiriqlariga misollar keltiramiz.

1-topshiriq. Sinfni kuzating. Ko'zingizga ko'ringan jonli va jonsiz predmetlarning nomini yozing.

2-topshiriq. O'ylang. O'zingiz yozgan so'zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozsa bo'ladi.

3-topshiriq. 12 ta so'z berilgan (o'quvchi, daftar, kitob, doska, o'qituvchi, agronom, chizg'ich, bola, rassom, qalam, kundalik, shoir). Shu so'zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozsa bo'ladi.

1- va 2-topshiriqlar yangi mavzuga oid ob'ektlarni tanlash ularni ikki guruhga ajratib yozish usulini aniqlash bilan, 3-topshiriq esa otlarni so'roqlariga ko'ra ikki guruhga ajratish usulini yangi o'quv holatiga tatbiq qilish bilan izohlanadi. O'quvchi 1-tur biluv topshirig'ida amaliy faoliyat

asosida xulosa chiqarishga, 2-tur biluv topshirig‘ida esa o‘rganilgan bilimni esga tushirishdan va uni yangi o‘quv holatiga tatbiq qilishga qarab boradi.

3. Biluv topshiriqlarining 3-turi ikki yoki undan ortiq mavzu doirasida o‘tkazilib, umumlashtiruvchanlik xususiyatiga ega. Masalan, 3-sinfda ot, sifat, son, fe’l so‘z turkumlarini o‘rgatish yakunlangach, quyidagicha umumlashtirish tipidagi biluv topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Savollarga mos misollar o‘ylab yozing.

Kim? +anday? Nechanchi? Nima qildi?

.....
.....
.....

O‘zingiz yozgan so‘zlarni qayta tahlil qilib, har bir so‘z turkumining ta’rifini esga tushiring.

2-topshiriq. Matnni o‘qib, ot, sifat, son, fe’llarga oid to‘rttadan so‘z ajratib yozing va so‘roqlarini aniqlang.

4. Biluv topshiriqlarining 4-turi o‘z bilimlarini xolisona baholash, o‘rtoqlari erishgan natijalarini tahlil qila olish layoqati bilan daxldor. Shunday qilib, biluv topshiriqlarini ikki jihatdan ta’lim mazmuni va o‘quvchilar faoliyatini nuqtai nazaridan ko‘rib chiqdik.

Biluv topshiriqlari o‘quv muammolari va mashq o‘tkazishga mo‘ljallab tuzilgan topshiriqlar o‘rtasidagi oraliq halqa bo‘lib, o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning eng unumdar vositasi sanaladi.

Xulosa. Ona tilidan o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida qator talablarga riousha qilinadi: topshiriqni bajarish uchun yaroqli bilimni o‘quvchi o‘z shaxsi faoliyatidan izlaydi. O‘z faoliyatidan topshiriqni bajarishga asqotadigan bilimni izlash bolalarda tanlay olish layoqatini o‘stiradi; o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq qilish. Bilimni, faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq qilish yo‘li bilan mashq qilinadi; o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini yanginotanish o‘quv holatiga tatbiq qilish. Shunday yo‘l bilan o‘quvchi bilimlarni ijodiy tatbiq qilish usullari, sharhlarini egallaydi; o‘quv topshirig‘i vositasida ona tilidan o‘rganilayotgan ob’ekt-(so‘z yoki gap, nutq tovushi yoki bo‘g‘in)ning yangi belgilarini ajratish. Bunday o‘quv topshirig‘i vositasida ona tiliga oid mavzular ijodiy yo‘l bilan o‘rganiladi. O‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida riousha qilinadigan talablarga ko‘ra ularning quyidagi tiplarini belgilaymiz.

Adabiyotlar

1. Маткин В.В. Межпредметные проблемные познавательные задачи как средство формирования интереса к творческой деятельности школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –М.: 1977. -28 с.
2. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. –М.: Просвещение, 1977. -240 с.
3. Маҳмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фанл. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2004. -42 б.
4. Муҳиддинов А.Ғ. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. –Т.: Ўқитувчи, 1995. -78 б.
5. Нематов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993. -30 б.